INKLYUZIV TA’LIMDA O‘QITUVCHINING ROLI VA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

Olimova Dilnoza Murodullo qizi

Termiz davlat pedagogika institute Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Eshmurodova O‘g‘ilshod Siddiq qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan inklyuziv ta’lim jarayonida pedagogning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda inklyuziv muhitda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularning psixologik tayyorgarligi va maxsus metodik mahoratini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, imkoniyati cheklangan ya'ni maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim jarayoniga integratsiya qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, pedagogik kompetensiya, integratsiya, imkoniyati cheklangan bolalar, individual ta’lim rejasi (ITR), adaptiv muhit, tolerantlik.

KIRISH

Bugungi kunda globalizatsiya va inson huquqlari ustuvorligi davrida ta’lim tizimining barcha uchun ochiqligi (accessibility) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonuni va inklyuziv ta’limni rivojlantirishga oid konsepsiyalari har bir bolaning, jismoniy yoki aqliy holatidan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish huquqini kafolatlaydi.

Biroq, inklyuziv ta’lim — Barcha bolalarga, jumladan alohida ta'lim ehtiyojiga ega va imkoniyati cheklangan bolalarga ham teng va sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan ta'lim tizimidir.Bu tizimning muvaffaqiyati bevosita o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq. Inklyuziv sinfda o‘qituvchi faqat axborot beruvchi emas, balki ijtimoiy koordinator, psixolog va moslashtiruvchi (adaptor) vazifasini bajaradi.

1. INKLYUZIV TA’LIMDA O‘QITUVCHINING KO‘P FUNKSIYALI ROLI

Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qituvchining faoliyati an’anaviy o‘qitishdan tubdan farq qiladi. Uning asosiy rollari quyidagilardan iborat:

Diagnostik rol: Bunda o‘qituvchi har bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonlarini, idrok etish xususiyatlarini aniqlashi lozim.Negaki, har bir bola turlicha rivojlanadi. O‘qituvchi bolaning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlasa, unga mos yondashuvni tanlay oladi. Aks holda, umumiy metod bilan ishlash ayrim bolalarni ta'lim jarayonida ortda qolishiga sababchi bo‘lishi mumkin.Shu bilan bir qatorda, idrok etish xususiyatlarini bilish ham darsni samarali qilishga yordam beradi.Masalan, kimdir eshitish orqali yaxshi o‘rganadi, boshqasi ko‘rish yoki amaliy faoliyat orqali. Diagnostika bo‘lmasa, bu farqlar e’tibordan chetda qoladi.

Modifikatorlik roli: O‘quv dasturini bolaning ehtiyojiga qarab soddalashtirish yoki unga qulay bo‘lgam tarzda o‘zgartirish (masalan, ko‘rish qobiliyati cheklangan bola uchun matnni audio formatga o‘tkazish, eshitishida muammo bo‘lsa — vizual yoki yozma materiallar tashkil etish)Shu bilan bir o‘rinda , bu rol bolaning mustaqilligini oshiradi. Negaki, material o‘quvchiga moslashtirilgan bo‘lsa, u boshqalarga qaram bo‘lib qolmaydi, o‘zi ishlay oladi.Muammo ko‘pincha bolada emas, balki materialning taqdim etilishida bo‘ladi. Modifikatsiya orqali esa shu to‘siqlar bartaraf etiladi.

Ijtimoiy-psixologik rol: Sinfda sog‘lom ma’naviy muhit yaratish, "sog‘lom" o‘quvchilar va imkoniyati cheklangan o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yordam va hurmat tuyg‘usini

shakllantirish. Bu rol barcha o‘quvchilarni turli jabhada mukammal bo‘lishga yordam beradi. Misol uchun, “Sog‘lom” o‘quvchilar yordam berishni o‘rganadi, bu esa ularda empatiya, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiradi. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar o‘zini yolg‘iz his qilmasligi, jamoaning bir qismi ekanligini his qilishni, shuningdek, ijobiy muhitda erkin tarzda ta'lim olishiga yordam beradi.

2. O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYALARI TUZILMASI

Inklyuziv ta’lim pedagogi bir nechta asosiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi shart.Misol uchun:

2.1.Metodik kompetensiya bu- o‘qituvchining Individual Ta’lim Rejasini (ITR) tuza olish qobiliyatidir. Bunda o‘qituvchi dars jarayonini samarali tashkil etishi, o‘qitish usullari va metodlarini to‘g‘ri tanlashi hamda qo‘llay olishi bilan bir qatorda, alohida ehtiyojli bolaga ham mos topshiriq bera olishi (differensial yondashuv) kerak.

2.2. Psixologik-pedagogik kompetensiya bu- imkoniyati cheklangan bolalar bilan muloqot qilishning etik me’yorlarini bilish, ulardagi tushkunlik yoki agressiya holatlarini to‘g‘ri boshqara olish qobiliyatidir.Bu kompetensiya alohida ta’lim ehtiyojiga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilar uchun muhimdir.Chunki, imkoniyati cheklangan bolalar ko‘pincha sezgir bo‘ladi. To‘g‘ri muloqot va etik me’yorlarga amal qilish ularni kamsitilishdan, qo‘rquvdan, ishonch yo‘qolishidan himoya qiladi.

2.3. Hamkorlik kompetensiyasi. Bu kompetensiya inklyuziv ta’lim jamoaviy ishda olib borilishi qanchalik muhim ekanligini ochib beradi. Bunda o‘qituvchi ota-onalar, logopedlar, psixologlar va tyutorlar (yordamchi o‘qituvchilar) bilan samarali muloqot o‘rnata olishi lozim.

3. KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA UCHRAYOTGAN

MUAMMOLAR

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘qituvchilar quyidagi to‘siqlarga duch kelmoqda:

Psixologik tayyor emaslik: Ko‘p pedagoglar "men maxsus ta’lim bo‘yicha mutaxassis emasman, bu bolaga zarar yetkazib qo‘yishim mumkin" degan qo‘rquvda yashaydi.

Metodik resurslarning yetishmasligi: Inklyuziv sinflar uchun darsliklar va ko‘rgazmali qurollarning kamligi.

Vaqt tanqisligi: Bir darsda 30 nafar o‘quvchi bilan ishlash jarayonida alohida ehtiyojli bolaga vaqt ajratishning qiyinligi.

4. KASBIY KOMPETENSIYALARNI OSHIRISH STRATEGIYASI

O‘qituvchilarning inklyuziv savodxonligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar samarali hisoblanadi:

Uzluksiz malaka oshirish: Qisqa muddatli kurslar o‘rniga, amaliyotga yo‘naltirilgan (case-study) treninglar o‘tkazish.

Mentorlik tizimi: Tajribali defektologlarni umumta’lim maktablariga maslahatchi sifatida biriktirish.

Raqamli texnologiyalar: O‘qituvchilarni assistiv (yordamchi) texnologiyalar (masalan, ekran o‘quvchi dasturlar, nutqni matnga aylantiruvchi ilovalar) bilan ishlashga o‘rgatish.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Inklyuziv ta’lim — bu shunchaki ta’lim shakli emas, bu jamiyatning insonparvarlik darajasini belgilovchi mezondir. O‘qituvchi bu jarayonda markaziy bo‘g‘in bo‘lib, uning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish davlat darajasidagi vazifadir.

Tavsiyalar:

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida barcha yo‘nalishlar uchun "Inklyuziv ta’lim texnologiyalari" fanini chuqurlashtirilgan holda o‘qitish.

Inklyuziv sinflarda ishlayotgan o‘qituvchilar uchun moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini kuchaytirish.

Maktablarda "inklyuziv resurs markazlari"ni tashkil etish va ularni zamonaviy metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4860-son qarori.

4.Shomaxmudova R. "Inklyuziv ta’lim asoslari". Toshkent, 2021.

5.Booth, T., & Ainscow, M. "Index for Inclusion: developing learning and participation in schools".